

2025-yil “28” “iyul” dagi 03.07.2024-2178
Startaplar ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha
Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi
bayoniga 1-sonli ilova

**Raqamli texnologiyalar sohasidagi startap-loyihalarni har tomonlama
qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturida ishtirok etish
uchun arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

I. Umumiyyat qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Startap-loyihalar va vechur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sun qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturida ishtirok etish uchun arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

Dastur – raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturi;

Platforma – Startap loyihalar ekotizimi platformasi (www.startupbase.uz);

Direksiya – “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ;

Vechur fondi – yuqori tavakkalchilikka ega loyihalarga pul mablag‘larini kiritish uchun mo‘ljallangan investitsiya kompaniyasi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Startap-loyihalar va vechur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sun qaroriga muvofiq tashkil etilgan Startaplar ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash;

Da‘vogar – yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, startaplar ekotizimining ishtirokchilari bo‘lgan, Dasturda qatnashish niyatiga ega startaplar;

Startap-loyiha – O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan, innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan raqamli texnologiyalar sohasida faoliyat yurituvchi yuridik shaxs;

Ishtirokchi – platformada ro‘yxatdan o‘tgan va tegishli arizalarni ko‘rib chiqish natijalariga ko‘ra Dastur ishtirokchisi maqomini olgan startap-loyihalar hamda startaplar ekotizimining ishtirokchilari (vechur fondlari, xususiy investorlar, shuningdek, inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturlarini tashkil etish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari);

Akseleratsiya dasturi – mentorlik, ixtisoslashtirilgan o‘quv tadbirlari va ekspert maslahatlari orqali startaplarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tashabbusi bo‘lib, bu yangi bozorlarga chiqish va investitsiyalarni jalg qilish imkoniyatiga ega startaplarni jadal rivojlantirish imkonini beradi;

Inkubatsiya dasturi – bu startaplarni rivojlanishning boshlang‘ich bosqichida qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan, g‘oyani amaliy biznesga aylantirish maqsadini ko‘zlovchi maxsus ta’lim dasturi;

Ekspert komissiyasi – Dasturda ishtirok etish uchun arizalarni ko‘rib chiqish, Dastur ishtirokchisi maqomini olishga da’vogar bo‘lganlarning biznes-rejalarini tahlil qilish maqsadida Direksiya huzurida malakali mutaxassislardan tashkil etiladigan organ.

3. Da’vogarlardan kelib tushadigan arizalar va hujjatlarni ko‘rib chiqish maqsadida Direksiya huzurida Ekspert komissiyasi tuziladi.

4. Ekspert komissiyasining tarkibi va ish tartibi Direksiya tomonidan ularning ichki nizomlariga muvofiq belgilanadi.

5. Arizalarni ko‘rib chiqish ushbu Nizomga 1-ilovadagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

II. Dasturda ishtirok etish shartlari

6. Dasturda quyidagi yuridik shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari ishtirok etishlari mumkin:

a) quyidagi talablarga javob beradigan startap-loyihalar:

faoliyat davomiyligi – 6 oydan 7 yilgacha bo‘lgan;

kalender yildagi umumi daromadi – 10 milliard so‘mdan oshmaydigan;

inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlaganligini tasdiqllovchi hujjatga ega;

raqamli texnologiyalarga asoslangan, yuqori o‘sish va xorijiy bozorlarga chiqish salohiyati bo‘lgan biznes modelga ega;

platformada ro‘yxatdan o‘tgan;

b) startap ekotizimi ishtirokchilari – venchur jamg‘armalar va xususiy investorlar hamda startap loyihalar uchun akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini tashkillashtirish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari.

7. Arizalarni baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi, ularning har biriga ball (1 dan 10 ballgacha) beriladi:

- innovatsionlik: mahsulotning yangiligi va o‘ziga xosligi darajasi;
- kengaytirish salohiyati: ichki va xalqaro bozorlarda tushumning prognoz qilinayotgan o‘sishi va maqsadli foydalanuvchilar soni;
- moliyaviy barqarorlik: tasdiqlangan moliyalashtirish manbalarining mavjudligi yoki ularni jalg qilish imkoniyati;

– biznes modelining hayotiyligi: asosiy xarajatlar va daromadlarni asoslash, rentabellik nuqtasiga erishish muddatlari.

Bunda, Dasturga kiritish uchun baholashdan o‘tishning minimal chegarasi 20 ballni tashkil etadi.

III. Ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari

8. Ishtirokchilarga quyidagi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari tatbiq etiladi:

a) qiymati 50 million AQSh dollaridan ortiq investitsiya aktivlarini boshqaradigan xorijiy vechur fondlarining sarmoyalarni jalg qilgan startap-loyihalarga, ushbu sarmoyalarga mutanosib hajmda, biroq 100 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmaydigan miqdorda investitsiya mablag‘lari ajratish;

b) quyidagi xarajatlarni qoplash:

– 5 yildan ortiq davomida faoliyat yuritib, kamida 100 million AQSh dollari miqdorida sarmoya jalg qilgan yetakchi xalqaro akseleratsiya dasturlarida ishtirok etish, shuningdek, Raqamlı texnologiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq tadbirkorlik, biznes va korporativ boshqaruva kurslarida ta’lim olish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizigacha, biroq 20 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmaydigan miqdorda;

– inkubatsiya va (yoki) akseleratsiya dasturlarini amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlariga mentorlar va murabbiylarni jalg qilish bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizigacha, biroq 50 ming AQSh dollari ekvivalentidan oshmaydigan miqdorda;

– intellektual faoliyat natijalarini va savdo belgilarini patentlash hamda ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlari;

d) Direksiya huzuridagi vechur fondi tomonidan startap loyihalariga garov ta’motisiz 300 million so‘mgacha miqdorda Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foiz punktga yuqori stavkada qarz mablag‘lari ajratish;

e) startap loyihalari asoschilari (ishtirokchilari) va mutaxassislariga IT-viza berish amaliyotini qo‘llash;

f) davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo‘lgan vechur fondlari va startap-loyihalarga raqamlı startap-loyihalar sohasidagi “tartibga solish qumdoni” (sandbox)ga kirishni ta’minalash, bu quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– startap-loyihalarga, shu jumladan daromadlilikka erishish ehtimoli past bo‘lgan loyihalarga sarmoya kiritish, shuningdek, ularning ustav jamg‘armasida ulushli ishtirok etish;

– yangi ishlanmalarni garovsiz, kafillik va kafolatlarsiz amalga oshirish uchun qarz shaklida o‘z mablag‘larini taqdim etish;

- kelajakda qarz yoki kreditni startap-loyihaning ulushiga (aksiyasiga) aylantirish imkonini beruvchi konvertatsiya qilinadigan qarz to‘g‘risida shartnoma tuzish;
- startap-loyiha rivojlanishning muayyan bosqichiga yetganda yoki ustav fondi (kapitali) ko‘payganda unda ulush olish huquqini beruvchi kelajakdagi kapital to‘g‘risida shartnoma tuzish;
- o‘z mablag‘larini ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida ishonchli boshqaruvga topshirish.

9. Ushbu Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan a, b va d qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini qo‘llash tartibi Muvofiqlashtiruvchi kengashning alohida bayoni bilan tasdiqlanadi.

IV. Arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish tartibi

10. Dasturda ishtirok etish uchun da‘vogar Direksiya tomonidan tasdiqlangan shakl asosida platformaga ariza topshirishi lozim.

11. Platformada ro‘yxatdan o‘tish jarayonida da‘vogarlar ommaviy ofertani qabul qilish orqali Dasturda ishtirok etishga o‘z roziligini bildiradilar.

Bunda, ommaviy ofertani qabul qilish ularning shaxsiy ma’lumotlariga ishlov berishga yozma roziligini anglatadi.

12. Ariza Ekspert komissiyasi tomonidan ushbu Nizomning 1-ilovasidagi sxemaga muvofiq 15 (o‘n besh) ish kuni davomida ko‘rib chiqiladi.

13. Ekspert komissiyasi kotibi ariza kelib tushgan paytdan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida ilova qilingan hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini va to‘liqligini tekshiradi.

14. Ariza to‘g‘ri rasmiylashtirilgan va ilova qilingan hujjatlar to‘liq bo‘lgan taqdirda, Ekspert komissiyasi kotibi arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ushbu Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini tekshirish uchun Ekspert komissiyasiga topshiradi.

Ushbu Nizom talablariga muvofiq bo‘lmagan holat aniqlanganda, shuningdek, majburiy ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki ishonchsiz ekanligi ma’lum bo‘lganda, yoxud majburiy ma’lumotlar mavjud bo‘lmasganda, Ekspert komissiyasi arizani ko‘rib chiqishni rad etishga haqli.

15. Ekspert komissiyasi 10 (o‘n) ish kuni davomida arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqadi, hamda biznes-rejalarni ekspertizadan o‘tkazadi. Arizani ko‘rib chiqish natijalariga asoslanib, Ekspert komissiyasi da‘vogarning Dasturda ishtirok etishi bo‘yicha arizasini ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ariza ma’qullangan taqdirda, da‘vogarga “Dastur ishtirokchisi” maqomi beriladi va tegishli xabarnoma yuboriladi.

Rad etilgan taqdirda esa, ariza beruvchiga rad etish sababi ko'rsatilgan holda xabarnoma yuboriladi.

- 16.** Ekspert komissiyasining qarorlari bayonnomma shaklida rasmiylashtiriladi.
- 17.** Zarurat tug'ilganda, Ekspert komissiyasi tomonidan da'vogar bilan suhbat tashkil etilishi mumkin.
- 18.** Arizalarni ko'rib chiqishda Ekspert komissiyasi ushbu Nizom talablariga amal qiladi.
- 19.** Ariza topshirish va uni ko'rib chiqish uchun haq olinmaydi.

V. Dasturga qabul qilishni rad etish asoslari

- 20.** Quyidagilar Dasturga qabul qilishni rad etish uchun asos bo'lishi mumkin:
 - ishtirokchining amaliy faoliyati taqdim etilgan biznes-rejaga mos kelmasligi;
 - ushbu Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan shartlarga muvofiq kelmasligi;
 - ushbu Nizom talablariga amal qilmaslik;
 - noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etish yoxud majburiy ma'lumotlarni taqdim etmaslik;
 - biznes-rejaning Dastur talablariga mos kelmasligi.
- 21.** Ariza rad etilgan taqdirda, Ekspert komissiyasi tegishli qaror qabul qiladi va rad etish sabablarini ko'rsatgan holda arizachiga xabarnoma yuboradi.
- 22.** Rad javobini olgan taqdirda, arizachi Ekspert komissiyasi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etib, arizani qaytadan topshirish huquqiga ega.
- 23.** Ekspert komissiyasining qarorlari uzil-kesil hisoblanadi va nizolashishga yo'l qo'yilmaydi.

VII. Nazorat va monitoring

24. Ishtirokchi har chorakda bir marta Platformadagi shaxsiy kabinetiga quyidagi ma'lumotlarni kiritishi va yangilab borishi shart:

- moliyaviy faoliyat ko'rsatkichlari;
- biznes-rejani amalga oshirish bo'yicha erishilgan yutuqlar tavsifi;
- faoliyatning haqiqiy ko'rsatkichlari;
- jalb qilingan investitsiyalar statistikasi.

Bunda, tegishli ma'lumotlar idoralararo hamkorlik (integratsiya) orqali olinishi mumkin.

- 25.** Ekspert komissiyasi taqdim etilgan ma'lumotlarni muntazam ravishda tekshiradi, shuningdek, zarur hollarda qo'shimcha hujatlarni so'rab oladi yoki audit o'tkazadi.

26. Qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda ishtirokchiga ularni bartaraf etish muddati ko'rsatilgan holda ogohlantirish yuboriladi.

VIII. Dasturdan chetlatish asoslari va tartibi

27. Quyidagilar Dastur ishtirokchisini chetlatish uchun asos bo'lishi mumkin:

- ishtirokchining ko'rsatkichlari ushbu Nizomning 6-bandida belgilangan talablarga mos kelmasligi;
- ishtirokchining amaliy faoliyati taqdim etilgan biznes-rejaga muvofiq bo'lmasligi;
- ommaviy oferta va ushbu Nizomda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmaganligi;
- ishtirokchining bankrot deb e'lon qilinishi;
- noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilishi;
- yuridik shaxs faoliyatining tugatilishi;
- mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablarini buzish.

28. Dasturdan chiqarilishi Ekspert komissiyasining qarori asosida yoki ishtirokchilarning tashabbusi bilan amalgalash oshiriladi. Ishtirokchilar Dasturdan chiqish tashabbusini platforma orqali Ekspert komissiyasiga yuboradi.

29. Dasturdan chetlatish to'g'risida qaror qabul qilinganda, ishtirokchiga platformada chetlatish asoslari ko'rsatilgan bildirishnomasi yuboriladi.

30. Dasturdan chetlatilgan taqdirda, ishtirokchi Dastur doirasida nazarda tutilgan barcha turdag'i qo'llab-quvvatlashlardan foydalanish huquqini yo'qotadi.

31. Dasturdan chetlatilgan ishtirokchilar ushbu Nizom talablariga muvofiq Dasturda ishtirok etish uchun qayta ariza topshirishlari mumkin.

IX. Yakuniy qoidalar

32. Ushbu Nizom tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga kiradi.

33. Ushbu Nizom ishtirokchilarning ehtiyojlari va tahlil natijalariga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi lozim.

34. Dasturni amalgalash oshirish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

35. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish Direksiya tomonidan amalgalash oshiriladi.

36. Dasturni amalgalash oshirishni muvofiqlashtirish vakolatlari Muvoifiqlashtiruvchi kengashda saqlanib qoladi.

Raqamli startaplar dasturida ishtirok etish uchun arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
1-ilova

Raqamli startaplar dasturida ishtirok etish uchun arizalarni topshirish va ko‘rib chiqish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Da‘vogar	Zarur hujjatlarni ilova qilgan holda Direksiya tomonidan tasdiqlanadigan shaklga muvofiq platformada ariza topshiradi.	Zarur bo‘lgan hollarda
2-bosqich	Ekspert komissiyasi	<p>Arizaning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini va ilova qilingan hujjatlarning to‘liqligini tekshiradi, arizani ballar tizimiga muvofiqlik mezonlari bo‘yicha baholaydi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlansa, shuningdek, ishonchsziz (noto‘g‘ri) majburiy ma’lumotlar aniqlansa yoki ular mayjud bo‘lmasa, arizani rad etadi yoki uni qayta ishslash uchun qaytaradi. Bunday holda, arizani qayta yuborish vaqtin ko‘rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi. b) Ilva qilingan hujjatlar to‘g‘ri rasmiylashtirilgan va to‘liq bo‘lsa, arizani qabul qiladi. 	5 (besh) ish kuni mobaynida
3-bosqich	Ekspert komissiyasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni ko‘rib chiqadi hamda arizani rad etish yoki ma’qullah to‘g‘risida qaror qabul qiladi. 2. Ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha da‘vogarga elektron pochta orqali arizaning ma’qullanganligi (Dasturda ishtirok etish uchun) yoki rad etilganligi to‘g‘risida bildirishnomha yuboradi. 	10 (o‘n) ish kuni mobaynida
4-bosqich	Ishtirokchi Direksiya	<ol style="list-style-type: none"> 1. Platformadagi shaxsiy kabinetga ma’lumotlarni kiritadi va yangilaydi; 2. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni tekshiradi. <p>Zarur hollarda qo‘sishimcha ma’lumotlarni (hujjatlarni) so‘rab oladi yoki audit o’tkazadi.</p>	Har chorakda Doimiy ravishda